



RAQAMLI IQTISODIYOT – RIVOJLANISH TRENDLARI VA XUSUSIYATLARI

Haqnazarova Muqaddas Fazlidin qizi

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya: Maqolada turizmning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga raqamli trendga ta'siri va uni baholashning dolzarb muammolari ko'rib chiqilgan, turizmning mamlakat iqtisodiyotiga bevosita ta'siri o'rganilgan.

Kalit so'zlar: milliy iqtisodiyot, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, raqamlashtirish trakzaksion sektor, ulgurji va chakana, noyob axborot transport, savdo, logistika.

Abstract: The article examines the impact of tourism on the socio-economic development of the country on the digital trend and current problems of its assessment, explores the secret of the direct impact of tourism on the country's economy.

Key words: national economy, socio-economic development, digitization of the traction sector, Wholesale and retail trade, unique information transport, trade, logistics.

Аннотация: В статье рассматривается влияние туризма на социально-экономическое развитие страны на цифровой тренд и актуальные проблемы его оценки, исследуется секрет непосредственного влияния туризма на экономику страны.

Ключевые слова: народное хозяйство, социально-экономическое развитие, оцифровка тракционного сектора, Оптовая и розничная торговля, уникальный информационный транспорт, торговля, логистика.



Bugungi kunda har bir davlat raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni o'zining ustuvor yo'nalishi deb biladi. Davlat dasturlari yordamida raqamlashtirish, xavfsizlikni ta'minlash va huquqiy tartibga solish, mamlakatimizda raqamli savodxonlik darajasi tahlil qilinib rivojlanmoqda. «Raqamlashtirish» so'zi aslida yangi atama bo'lib, innovatsion boshqaruv va ish yuritish jarayoniga IT yechimlarning jalb etilishini, buning samarasi o'laroq esa internet buyumlardan tortib, elektron hukumatgacha bo'lgan barcha tizimlarda axborot texnologiyalarini qo'llashni ko'zda tutadi. Iqtisodiyotning raqamli segmentiga tegishli bosh manba – tranzaksion sektorning o'sishidir. Rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich YaIMning 70 foizdan ortiq miqdorni tashkil etib, davlat boshqaruvi, konsalting va informatsion xizmat ko'rsatish, moliya, ulgurji va chakana savdo, shuningdek, xizmatlar sohasini (kommunal, shaxsiy va ijtimoiy) birlashtiradi. Iqtisodiyot diversifikatsiyasi va dinamikasi qanchalik yuqori bo'lsa, mamlakat ichida va tashqarisida noyob axborotlar aylanmasi shunchalik ko'p, milliy iqtisodiyotlar ichida axborot trafigi esa shu qadar salmoqli bo'ladi. Shu bois ishtirokchilar soni ko'p va IT xizmatlar keng tarqalgan bozorlarda raqamli iqtisodiyot jadal sur'atlarda rivojlanadi. Ayniqsa, bu – transport, savdo, logistika va shu singari internet bilan faol ishlovchi sohalarga cheksiz qulayliklar yaratadi. Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ularda elektron segmentning ulushi YaIMning 10 foiziga yaqinlashib, 4 foiz aholi bandligini ta'minlaydi. Eng ahamiyatlisi, bu ko'rsatkichlar barqaror tarzda o'sib boradi. Shubhasiz, raqamli iqtisodiyotning samaradorligiga nafaqat axborot texnologiyalarining qamrovi va infratuzilmaning mavjudligi, balki ishbilarmonlik muhiti, inson kapitali va muvaffaqiyatli boshqaruv instrumentlari kabi standart iqtisodiy mezonlar ham ta'sir ko'rsatadi. Binobarin, iqtisodiy taraqqiyot aynan ularga tayanadi, bu esa ushbu mezonlarning raqamli iqtisodiyot rivojlanishida avvalgiday muhim o'rin tutishini bildiradi. O'zbekiston ham raqamli iqtisodiyot sohasini rivojlantirishda jarayonga moslashish sur'atini oshirmoqda. O'zbekiston Prezidenti 2020-yil 28-aprelda “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 4699-sonli qarorni imzoladi¹. 2023-yilga kelib O'zbekiston yalpi ichki mahsulotidagi raqamli iqtisodiyot



ulushini 2 barobar, elektron davlat xizmatlari sonini esa 376 taga yetkazish rejalashtirilgan (hozirda yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YIDXP) orqali 326 ta davlat xizmatlarini ko'rsatish yo'lga qo'yilgan). Qarorda 2023-yilga borib ushbu sohadagi xizmatlar hajmini 3 barobarga oshirish va ularning eksportini 100 million dollarga yetkazish orqali raqamli tadbirkorlikni rivojlantirish ham ko'zda tutilgan. Shuningdek, 2022-yilda barcha hududlarda raqamli savodxonlik o'qitish markazlari ochilishi ham e'tiborga molik hisoblanadi. Bundan tashqari, Prezidentimizning 2020-yil 5-oktabrdagi 6079-sonli Farmoni bilan "Raqamli O'zbekiston – 2030" milliy strategiyasi tasdiqlanib, 2030-yilda raqamli iqtisodiyotning YAIM dagi ulushi 30 foizni tashkil etishi va unda raqamlashtirishni rivojlantirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar hududlar kesimida yanada batafsil yoritilgan. 2019 yilda chop etilgan UNCTADning raqamli iqtisodiyot hisobotiga ko'ra, 7 ta raqamli kompaniya (Microsoft, Apple, Amazon, Google, Facebook, Alibaba va Tencent) jami global bozor kapitallashuvining 3/2 qismini tashkil qildi. Global axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yaratilgan qo'shilgan qiymatning qariyb 40 foizi AQSh va Xitoy hissasiga to'g'ri keladi³. 2021-yil holatiga ko'ra raqamli iqtisodiyotning O'zbekiston yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 1,6 foizni, AQShda 9,3 foizni, Xitoyda 3,8 foizni, Hindistonda 8 foizni tashkil etdi. 2025 yilga borib dunyoning raqamli iqtisodiyoti 23 trillion AQSh dollarga yetadi.. Uning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi hozirgi 17,1 foizdan 24,3 foizgacha oshadi. Kommunal, sanoat va qishloq xo'jaligi, transport, moliya va boshqa sohalarda raqamli transformatsiyani rag'batlantirish uchun dunyo bo'ylab 100 milliard ulanish o'rnatiladi. Bulutli texnologiyalardan foydalanadigan korxonalar soni 85%, sun'iy intellekt – 86%, raqamli katta ma'lumotlar – 80 foizni tashkil etadi. Axborot texnologiyalari platformalarida faoliyat yurituvchi raqamli iqtisodiyot jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda, bu esa bunday platformalar uchun yangi model va texnologiyalarni yaratishni taqozo etmoqda. Bular raqamli iqtisodiyotning o'tkazuvchan (murakkab) texnologiyalari:



- 1. Big Data texnologiyalari;**
- 2. Internet ashyo texnologiyalari (IoT – Internet of Things);**
- 3. Mobil texnologiyalar;**
- 4. Bulutli texnologiyalar (Cloud computing);**
- 5. Virtual va to'ldirilgan texnologiyalar (VR – virtual reality) (AR – augmental reality);**
- 6. Neyrotexnologiyalar va sun'iy intellekt (SI);**
- 7. Raqamli platformalar;**
- 8. Kvant texnologiyalar;**
- 9. Robototexnika;**
- 10. Blokcheyn va kriptovalyuta texnologiyalari;**
- 11. Kraudsorsing va kraudfanding.**

Iqtisodiyotning real sektoriga raqamli iqtisodiyotni joriy etish texnik va texnologik kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi, bu esa ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarni ekspert qo'llab-quvvatlovchi markazlarni tashkil etish, shuningdek, ularni tijoratlashtirishni talab qiladi. Shunday qilib, "Raqamli iqtisodiyot"ni shakllantirish amaliyoti shuni ko'rsatadiki, uning iqtisodiy jarayonlarga ta'siri ko'p qirrali bo'lib, bu ta'sir barqaror, jamiyat, davlat va aholi faoliyati hamda hayotining barcha sohalariga kirib boradi. Raqamli



iqtisodiyotga bo'lgan qiziqish jamiyat va iqtisodiyotda ro'y bergan jiddiy o'zgarishlar tufayli sezilarli darajada o'sdi. Zamonaviy texnologiyalar va platformalar mijozlar, hamkorlar va davlat tashkilotlari bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish hisobiga korxonalar va jismoniy shaxslarga xarajatlarni qisqartirishga yordam berdi, shuningdek, o'zaro muloqotni yanada tez va oson yo'lga qo'yishga imkoniyat yaratdi. Natijada tarmoq resurslariga asoslangan, raqamli yoki elektron iqtisodiyot paydo bo'ldi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-aprelda "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4699-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 6079-sonli Farmoni.